




O'zbekiston
Internet tadbirkorlari
va elektron saudo assotsiatsiyasi



BUSINESS ZONE
Consulting Center

Янгиланаётган Узбекистонда фан, таълим ва инновация уйгунилиги



ТОШКЕНТ 2021

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
ЁШ ОЛИМЛАР КЕНГАШИ**
“BZONE CONSULTING CENTER” МЧЖ ҲАМДА
ЎЗБЕКИСТОН ИНТЕРНЕТ ТАДБИРКОРЛАР ВА
ЭЛЕКТРОН САВДО АССОЦИАЦИЯСИ
ТАШАББУСЛАРИ БИЛАН

**“ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ФАН,
ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИЯ УЙҒУНЛИГИ”**
МАВЗУСИДАГИ
**РЕСПУБЛИКА 6-СОН КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ-
МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯСИ 1-ҚИСМ**
МАТЕРИАЛЛАРИ

**“НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ В ОБНОВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА
И СОВМЕСТИМОСТЬ ИННОВАЦИЙ”**
РЕСПУБЛИКА 6 – НЕСКОЛЬКО НАУЧНЫХ РАССТОЯНИЙ
МАТЕРИАЛЫ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ ЧАСТЬ 1

**“SCIENCE, EDUCATION IN RENEWING UZBEKISTAN
AND COMPATIBILITY OF INNOVATION”**
**REPUBLIC 6 – MULTIPLE SCIENTIFIC DISTANCE
MATERIALS OF ONLINE CONFERENCE PART 1**

ТОШКЕНТ 2021

**MAKTABGACHA TA'LIMDAGI BOLALARНИ BOSHLANG'ICH TA'LIMGA
O'TISHIDA BO'LADIGAN PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR**

*Ruziyeva Nilufar Xafizovna
Buxoro Davlar Universiteti, o'qituvchi*

*Ibrohimova Muqaddas Ixtiyor qizi
Buxoro Davlat Universiteti, Guruh 11-8 MBTXT-20*

Annotatsiya: Maqolada yoritilishi ko'zda tutilgan masala shundan iboratki bolalar o'yin qaroqlik paytidan dars jarayonlariga ko'nikishda qiyonalishadi. Ularni bu vaziyatga bog'cha yoshidan ko'niktirilsa maktabda darslarga qiyalmay ishtirok eta oladilar. Aks holda, davomiy darslar ularni zeriktirib qo'yadi va bilim olish darajasini pasaytirib qo'yadi. Bu haqida prezidentimiz ham ko'plab fikrlarini aytib o'tganlar va maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilishga oid ko'p farmonlar bergenlar.

Kalit so'zlar: ko'nikma, mashg'ulot, ta'lim-tarbiya, maktabgacha ta'lim, qobiliyat, iqtidor, ta'lim muassasasi

Bu mavzu haqida, avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan", -deb aytadilar.

Avvalo, bola dunyoga kelar ekan ota-onasi bag'rida bo'ladi, ma'lum yoshga yetganda ko'pchilik odamlarni ko'rib, asta-sekin atrofidagi olamni anglay boshlaydi. Bola boshidan deganlaridek bolani yoshlikdan faqat o'yin bilan band qilmasdan, aksincha vaqt belgilab har xil mashg'ulotlar bilan shug'ullantirish kerak. Birinchi va asosiy tarbiya uydan olinadi, shu sababli yoshlikdan e'tibor kuchli bo'lishi va bola tarbiyasiga ehtiyojkorona bo'lish lozim. Bolani buzuq muhitlardan asrash kelajakka qo'yilgan qadam bo'lib xizmat qiladi. Noto'g'ri muhit bolani iqtidor, qobiliyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga bolaning fikrlash doirasiga ta'sir etadi. Bu salbiy ta'sirlar esa bolaning bilim olish darajasi, ruhiyatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Bola chaqaloqligida ota-onasidan ayrim so'zlarini o'rjanib, uni ayta boshlaydilar. Ma'lum yoshga yetganida bog'chaga chiqadi va harf, so'z, son, ko'pchilik yangi ma'lumotlar o'rgana boradi va ularni uyda qo'llaydi. Asosan bog'cha yoshidagi bolalar yangi so'zlarini

Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйғулиги мавзусидаги республика 6 –сон кўп тармоқли илмий-масофавий онлайн конференцияси 1-қисм

o'yinlar orqali o'rganishadi. Bog'chada ularga osonroq va esda qolarli bo'lisi uchun mashg'ulotlar o'yinlar orqali olib boriladi. Yoshlikning bir xislati bo'lgan o'yinqaroqlik sababli bolalar bunday mashg'ulotlarni qiyalmay bajarishadi. Bunday o'yinlar yosh bolalar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi, aksincha, ularni qiziqtirib o'ziga jalb qila oladi. Bolalar anchagina yillarini maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazishadi, bu davrda bolalarni yoshiga mos tarzda mashg'ulotlarni o'zgartirib borish bolani darslarga ko'nikma hosil qilishiga yordam beradi. Bog'cha yillarini faqat o'yinlar bilan o'tkazish bolani dangasa va loqayd qilib qo'yadi.

Prezidentimiz bu masalada: "Maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, maxsus muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi: -Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya – biz uchun yo hayot – yo mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik biz zamonaviy yetuk kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtaida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta islohotlar o'tkazamiz. Agar shu ishni har tomonlama o'ylab amalga oshirmsak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limni uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi", -deya ta'kidladilar. Prezidentimizning bu farmonlari maktabgacha ta'limni isloh qilish uchun zamin bo'la oladi. Yurtimiz ravnaqi biz yosh avlodning harakatimizga bog'liq, ammo yoshlikdan qilingan harakat samarasi ko'proq seziladi. Bola yoshlik paytidan har narsaga qiziqadi nimani ko'rsa ushlab olib ko'rgisi keladi, bu esa yoshlikdan hamma narsaga uni qiziqishi kuchliligini bildiradi. Shu qiziqishni to'g'ri yo'naltirish, unga to'g'ri maslahatlar berish bilan bir yosh kadrni kelajakka foydasi tegadigan shaxs bo'lishiga sababchi inson bo'lish mumkin. Har bir insonga qobiliyat, iqtidor beriladi, ammo uni to'g'ri yo'naltira olgan inson kelajakda yetuk shaxs bo'la oladi. Bizning xalqimiz miyasiga ornashib qolgan noto'g'ri o'qimay turib ham yashasa bo'ladi, o'qib olim bo'larmiding kabi g'oyalar bizlarni rivojlanishimizga to'sqinlik qiladi. Bu g'oyalarni o'zimizdan yiroqlashtirib kelajak avlodni bilim olishi uchun sharoitlar yaratib, o'qishlariga e'tibor berishimiz kerak. Bu rivojlanishimiz uchun katta yordamini beruvchi bir g'oyadir. Bo'sh vaqt ni bolalar bekorchilikka ko'p sarflashadi, bu esa ularni dangasalik odatlarini keltirib chiqaradi. Ayniqsa hozirgi rivojlangan zamonimizda

bolanichalg'ituvchi bekorchi narsalar juda ko'p bo'lgani sababli vaqtini o'tganini bilmay qolish odatiy holat. Shu bo'sh vaqtida yangi so'zlar, ma'lumotlar o'rganishsa ular uchun bu juda foydali va samarali bo'ladi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Agar shogird podshohlikka erishsa ham muallimiga qulluq qilsa arziydi.Haq yo 'lida kirm senga bir harf o 'qitmish ranj ila,Aylamak bo 'Imas ado oiling haqin yuz ganj ila»

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida bola kelajagiva uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o 'rinda ahamiyatberadi. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Biz ham shuni alohida e'tiborga olgan holda bolani tarbiyasiga, bilimiga vaqt ajratib e'tibor berishimiz lozim. Bola ruhiyati yoshlikdan quvnoq bo'lishi uchun o'yinlar bilan o'rgatilib, darslar ham o'yin tarzida olib boriladi. Ulg'aygani sari mashg'ulotlar, vazifa, darslar yoshiga qarab murakkablashib borishi lozim. Bu esa bolani boshlang'ich ta'limdag'i darslarda faol bo'lib, ko'nikma hosil qilishiga yordam beradi. Bola darslarni yaxshi o'zlashtirishi uchun uning ongi tiniq, sof va buzg'unchi fikrlardan yiroq bo'lishi muhim. Bu bolani diqqatiga eslab qolish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Tinch-totuv, mehrga to'la oilada o'sgan bola bilan janjallarda katta bo'lgan bola farqi yaqqol sezilgani kabi ularni dars jarayonlarida ishtiroklari ham shu kabi sezilib turadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta 'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtida o 'qituvchining jamoadagi obro'-e 'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. O'qituvchi faqatgina hurmatgagina loyiq bo'lmasdan o'quvchilari mehrga sazovor bo'lishi muhimroq menimcha. T a'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishiga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiyo'rta ta'lim, o 'ita maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o 'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bolinadi. Men asosiy mavzuga olgan yosh bola ya'ni maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limda, asosan, bola mehr bergen o'quvchisini darsida o'tirgisi, tinglagisi keladi.

Professor M.X.To'xtaxodjayevaning fikrlariga kelsak, u: "Torbiva nazariyasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod,

vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.Tarbiva muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda tashkil etiladi.",-degan fikrlarni aytib o’tgan. Har bir voqeа yana nimadir sodir bo’lishiga olib keladi. Misol uchun olib aytganda, yaxshi xabar, yoki kimningdir mehribonligi sizda yaxshi kayfiyat va xursandchilik tuyg’usini paydo qiladi bu esa o’z vaqtida bajarayotgan ishingiz a’lo darajada davom etishi yoki tugashiga sabab bo’la oladi. Yomon kayfiyatda esa qilayotgan ishingiz tugallanmay qolishi hech gap emas, chunki yomon kayfiyatda na dars mashg’ulotlari, na biror bir ish siz uchun imkonsiz ko’rinadi va bu borada qobiliyatim yo’q degan fikrni sizdagi tushkunlik holati olib keladi. Shuning uchun ruhiy holat har jarayonda muhim o'rinda turadi. Bolani boshlang'ich ta'limda faqat o'yinlar emas, vaqt kelganda yozuv darslari, keyinchalik o'qish va muntazam dars soatiga ko'nikma hosil qilish lozim. Chunki bola boshlang'ich ta'limda o'qiyotgan paytda belgilangan muddatda darsda o'tirishi kerak bo'ladi. Bog'chada bu ko'nikma hosil qilinmagan holda bolaga ruhiy bosim bo'lishi va u darsda diqqatini jamlay olmay qolishi hech gap emas. Qaysidir o'quvchi darsda o'zini chetga olib qatnashmaslik holatlarini ko'rsatsa u bilan suhbat o'tkazib muammosini aniqlash bu jarayonni yaxshilanishiga yordam beradi.

Xulosa. Bu maqolada shuni yoritdimki: bolalarni bog'chaga kun o'tishi, ularga kimdir qarab turishi uchun emas kelajakka zamin yaratish uchun berish lozim. Bog'chada o'sgan bola jamoa bilan kelishishni, birgalikda ahil-inoqlikni, dars jarayonlarida qatnashishni o'rganadi. Maktabgacha ta'lim sohasi juda rivojlangan hozirgi davrda bolalar bog'cha yoshidanoq ko'p ma'lumot, bilimlarni egallamoqdalar. Ularga bog'chada chet tillari, shaxmat darslari va undan tashqari o'zlarini ko'rsatishlari uchun turli tadbirlar o'tkaziladi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev aytganlaridek:"Yoshlar- ertangi kunimizga zamin". Shu sababli bolani yoshlikdan to'g'ri yo'naltirib, keljak uchun zamin yaratish har bir ota-onaning burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Prof. M.X.Toxtaxodjayevanig umumiyl tahriri ostidagi PEDAGOGIKA28-29betlari.
- 2.Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish, 15-bet
- 3.R.Mavlyanova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi",9-10 betlar.

27. <i>Ruziyeva Nilufar METHODS OF EASY LEARNING OF NEW WORDS IN ENGLISH.....</i>	121
---	-----

Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйгулиги мавзусидаги республика 6 –сон кўп тармоқли илмий-масофавий онлайн конференцияси 1-кисм

28. <i>Махмадов Аслиддин, Худайберганов Сокиржон ЎКУВ ЖАРАЁНИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ВА МУСТАХКАМЛАНДА ИШЛАБ ЧИКАРНИ АМАЛИЁТНИ ЎРНИ.....</i>	125
29. <i>Мусаева Нафиса, Мусаева Нодира ИЛМИЙ -ТЕХНИК ТАРАҚҚИЁТ ЖАДАЛЛАШГАН ДАВРДА - ШАҲСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ЎҚИТИНӢ ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ЎРНИ.....</i>	128
30. <i>Рустамжонов Бобиржон, Кулхаметов Ойбек ОЛӢӢ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МУТАҲАССИСЛИК ФАЙЛарНИ ЧЕТ ТИЛИДА ЎҚИТИНӢ ГУРУХJИНИ ТАШКИЛ ТАҲЛИЛИ.....</i>	133
31. <i>Yoqibxon Faxriddinov PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING ASOSIY FUNKTSIYALAR.....</i>	136
32. <i>Салима Холдорова СОГЛОМ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК МУХИТ – МУВАФФАКИЯТ ГАРОВИ.....</i>	140
33. <i>Eshonqulova Iroda Sevara Axmedova YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA</i>	
34. <i>PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR.....</i>	147
35. <i>Babajanova Fotima HAMMASI YAXSHI BO'LADI.....</i>	151
36. <i>Ma'murova Maftuna, Normatova Muazzam YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA KEKSALARNING O'RNI.....</i>	156
37. <i>Raxmonova Gulsevar, Xudayqulova Zarifa MENING DUSHMANIM - MENING DO'STIM.....</i>	160
38. <i>Xudayqulova Zarifa, BAXTLI BO'LISH O'Z QO'LIMIZDA.....</i>	163
39. <i>Нурумбекова Яркинай, Сардор Базаров ОИЛА – МУҚАДДАС ДАРГОХ.....</i>	167
40. <i>Курбанова Салора НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА: ТЕХНОЛОГИЯ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ.....</i>	170
41. <i>Ruziyeva Nilufar, Ibrohimova Miqadd MAKTABGACHA TA'LIMDAGI BOLALARNI BOSHLANG'ICH TA'LIMGA O'TISHIDA BO'LADIGAN PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR.....</i>	173
42. <i>Arziqulova Gulniso CONDUCTING A "SPELL BEE" COMPETITION DURING AN ENGLISH LESSON.....</i>	177
43. <i>Babajanova Vasila INGLIZ TILINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....</i>	180
44. <i>Normatova Gulchehra, Qurbonova Umida BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "AJURLI ARRA" METODIDAN FOYDALANISH.....</i>	183
45. <i>To'yeva Mahabbat BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH.....</i>	187
46. <i>Namroyeva Dilshod BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TA'LIM TUSHUNCHASI VA TEXNOLOGIYALAR.....</i>	189
47. <i>To'ychiyev Abdulla PSIXOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASINING MOHIYATI.....</i>	191

Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйгулиги мавзусидаги республика 6 –сон кўп тармоқли илмий-масофавий онлайн конференцияси 1-кисм

48. <i>Po'latova Madina, Olimova Nilufar HUSNIXAT YUZASIDAN O'QUVCHILAR BILIMINI HISOBGA OLİSH.....</i>	196
49. <i>Sayidova Galnogakhan THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT LEARNING AT SECONDARY SCHOOLS.....</i>	199
50. <i>Xuseynova Abira, Po'lotova Madina INQIROZLI VAZIYATLARDA O'SMIRLARDA SUİDSİDAL XAVF SHAKLLANISHINI OLDINI OLİSHNING PSIXOLOGIK MEXANİZMLARI.....</i>	203
51. <i>Po'lotova Madina, Xuseynova Abira OILA O'SMIRLAR O'RTASIDA SUİDSİDAL XARAKATLARNI BARTARAF ETISH OMILI SİFATIDA.....</i>	207
52. <i>Turdimova Maxbuba BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING YOSHGA OID XUSUSIYATLARI.....</i>	210
53. <i>Sharipova Dilora, Baratova Muxayyo THE DEVELOPMENT OF FOREIGN LANGUAGE TEACHER'S USING COMMUNICATION TECHNOLOGIES.....</i>	
54. <i>Kattayeva Zebo, Nematov Ahror BOSHLANG'ICH SINFLARNI INNOVATION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH.....</i>	219

